

## TOHIR MALIKNING “ODAMIYLIK MULKI” ASARIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMA’NAVYIY XUSUSIYATLARI

*Tilavova Munisxon Alijon qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti o'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi,  
Bux DU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida mustaqil izlanuvchisi  
[tilavovamunisxon94@gmail.com](mailto:tilavovamunisxon94@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida qo'llanilgan frazeologik birliklarida lingvoma'naviy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. “Odamiylik mulki” asarida uchragan polisemiya va omonimiya hodisalaridan ayrim namunalari uchraydi.

**Kalit so'zlar:** sema, belgi, hosila, frazeologizm, polisemiya, omonimiya.

Ma'lumki iboralar lug'ati<sup>1</sup>da adabiy nutqqa oid frazeologik bo'g'inlar o'z ifodasini topgan. Jonli so'zlashuv tiliga xos iboralar mazkur kitobdan o'rin olmagan. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, Tohir Malik asarida qo'llangan ko'plab iboralar lug'atdan o'rin olmaganligi kuzatiladi.

Ijodkor o'z asarida ishlatgan iboralarning qariyb 70-75 foizini xalq tilidagi kabi, ya'ni aynan qo'llaganligiga guvoh bo'lamiz.

Badiiy asarda ijodkor tilda mavjud bo'lgan turli vositalardan maqsadiga muvofiq holda tanlab qo'llaydi. Asarning estetik qimmatini oshirishga hissa qo'shgan birliklar ijodkor mahoratini namoyon etadi. Mahoratli ijodkor mavjud birliklar bilan bir qatorda o'zi ham yangi ifodalarni o'ylab topadi yoki nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda tildagi leksema mazmuniga yangicha “tus” beradi. Ularning ba'zilar vaqt o'tishi bilan adabiy til me'yorlari asosida tilning lug'at boyligini boyitishga hissa qo'shadi, ba'zilar esa muayyan nutqqa xosligicha qoladi.

Tohir Malik ham ulug' so'z ustalari izidan borib, o'zining teran falsafiy qarashlari, so'z sezgisi, betakror ijodkorligi bilan tilga yangi-yangi o'ziga xos individual, go'zal topilmalar, ifodalarni olib kirdi. Ularni tilning ichki imkoniyatlari asosida yaratdi va asarlari mazmun-mohiyati hamda jozibadorligini oshirishga erishdi.

Jumladan, Umumxalq tilida **ko'z yummoq** iborasi bor. Bu ibora “ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq”, “vafot etmoq” kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Asarda yozuvchi bu iboraning birinchi ma'nosidan unumli foydalangan. Lekin bu dahshatdan (ha, aynan dahshat, aynan yovuzlik deymiz) **ko'z yuma olmaymiz**. Aqlni lol qoldiradigan darajada ehson dasturxonlariga mehmonlarni chorlaganlari holda otalari yoki onalariga o'zlarining eski kiyimlarini kiyintirib

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент, 1978.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. ва б.

qo'yadiganlar ozmi yo ko'pmi? (58-bet); Shunga o'xshagan voqealar oz bo'lsa ham uchrab turadi-ki, undan **ko'z yummoqlik** musulmon bolasiga xos emas. Ota-onalarini izzat qiluvchilarni hayotda ko'p uchratamiz va bundan ko'ngillarimiz shodlanadi. (58-bet)

**Qo'l uzatmoq** iborasini yozuvchi ko'p qo'llagan. Bu ibora umumxalq tilida "bir narsani bevosita olish uchun qo'lini bor bo'yi yo'naltirmoq", "salom-alik qilish uchun qo'lini bor bo'yi yo'naltirmoq", "shahvoniy tuyg'u bilan muomala qilmoq", "o'z manfaati yo'lida foydalanishga harakat qilmoq", "najot istab murojaat qilmoq", «yordam bermoq» kabi ma'nolarda ifodalangan. Masalan, Ularga yordam **qo'lini uzatib**, iymonsizlikdan qutulishga ko'maklashish burchimiz emasmi? (5-bet)

**Qo'lni qo'lga berish** iborasi «birlashish», «ittifoqlashish» ma'nolarini beradi. Qaraylik: yomon tarbiya seli yopirilyapti, o'zimizning ruhiyatimizni, farzandlarimizni, yaqinlarimizni bu balo selidan qutqarish uchun **qo'lni qo'lga berish** vaqti etmadimikin? **Qo'lni qo'lga berish** - shunchaki quruq gap emas. Polshaliklar buni amalda isbot etishgan. Bir kun, bir soat butun mamlakat aholisi ko'chaga chiqib, qo'lni qo'lga berib, jonli zanjir hosil qilishgan va giyohvandlikka qarshi kurashish yo'lida yakdil ekanliklarini ifoda etishgan. (16-bet)

**Yaxshi ko'rmoq** frazemasi "sevmok", "oshiq-ma'shuq bo'lmoq", "yoqtirmok", "izzat-hurmat"<sup>2</sup> ma'nosini ifodalaydi. Tohir Malik o'z asarida bu frazmadan unumli foydalangan. Masalan, «Rasulullohning (s.a.v.) sahobalaridan bir kishi meni uchratib, yelkamdan ushladilar-da: «Men seni **yaxshi ko'raman**», – dedilar. Men u kishiga: «Meni sizga yaxshi ko'rsatgan Alloh taolo sizga ham O'z muhabbatini qo'ysin!» - dedim. Shunda u kishi Rasulullohning (s.a.v.) «Bir odam birovni **yaxshi ko'rsa**, yaxshi ko'rganligini uning o'ziga bildirsin», degan hadislarini eshitmaganimda seni **yaxshi ko'rishimni** o'zingga aytmagan bo'lardim», – dedilar». (37-bet); Ammo o'g'il farzand nasl-nasabni davom ettiruvchi bo'lgani uchun ham otada alohida quvonch uyg'onadi. Quvonch sababini qizlarni kamsitishda deb anglamaslik kerak. Chunki Islomda bolalarni ajratish, ya'ni birini ko'proq ikkinchisini kamroq **yaxshi ko'rish** durust hisoblanmaydi. (53-bet)

Umumxalq tilida **yuz tutmoq** iborasi bor. Bu ibora "duch kelmoq", "biror tomonga qaramok" ma'no ottenkalariga ega. Masalan, Yevropaning ilm-fanda, madaniyatda ilg'or ekaniga mahliyo bo'lganlar. Ularning fikriga bugun to'g'ridan-to'g'ri ergasha olmaymiz. Chunki tarbiya sohasida Amerika ham Yevropa ham keyingi yuz yil ichida tanazzulga **yuz tutgan**. (16-bet); Eng dahshatlisi shuki, bir butxona ichida mast holda turarmishlar, mastlikdan o'sha ibodatxona ahli kabi butparastlikka **yuz tutgan** emishlar. (26-bet); Do'stga loyiq odamni ikki narsadan bilsa bo'lur. Biri –

<sup>2</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. –323-б.

do'stining holi tang bo'lib qolsa yoki qashshoqlikka **yuz tutsa** undan yuz o'girmaydi, balki molini undan darig' tutmaydi. Yana biri - do'sti vafot etganidan so'ng ham do'stining farzandlari, qarindoshlarini va do'stlarini ziyorat qilib turgay. (138-bet)

**Dunyoga kelmoq**, odatda, «tug' ilmoq» ma'nosini beradi. Hayot – imtihon ekanligini avvalgi bobda aytib edik, yana shu mavzuga qaytsak: imtihon bor joyda burch, javobgarlik, mas'uliyat bo'ladi. Inson ana shu mas'uliyat bilan **dunyoga keladi**. (10-b.)

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Badiiy asarda ijodkor tilda mavjud bo'lgan turli vositalardan maqsadiga muvofiq holda tanlab qo'llaydi. Asarning estetik qimmatini oshirishga hissa qo'shgan birliklar ijodkor mahoratini namoyon etadi. Mahoratli ijodkor mavjud birliklar bilan bir qatorda o'zi ham yangi ifodalarni o'ylab topadi yoki nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda tildagi leksema mazmuniga yangicha “tus” beradi. Ularning ba'zilari vaqt o'tishi bilan adabiy til me'yorlari asosida tilning lug'at boyligini boyitishga hissa qo'shadi, ba'zilari esa muayyan nutqqa xosligicha qoladi.

Okkozional ma'no leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha “tus” berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir. U individual xarakterda bo'lib, faqat kontekstda anglashiladi<sup>3</sup>.

Xalq tilida «Erkak ko'chani odami» kabi iboralar uchraydi. Tohir Malik esa erkak qavmi nomidan turib yangi original ibora qo'llagan: Afsuslarkim, ayrimlarimizning **ko'ngillarimiz ko'chaga bog'langan**. (9-b.) Bu frazeologik birlik ko'chani sevuvchi, ko'chadan beri kelmaydigan degan ma'nolarni yuzaga keltirgan.

Ijodkor muayyan tasvirni jonlantirishda “**aqliga bog'liq**”, “**aql ko'zi bilan kuzatib**”, “**boshi og'riydigan toifa**”, “**ishqlari aqlariga jabr eta boshladi**” kabi o'ziga xos individual iboralarni ham yaratadiki, ular asar ta'sirchanligi, estetik ruhini oshirishga hissa qo'shish bilan birga tilni yangi ifodalar bilan ham boyitadi.

Bu kabi nasihatlar donolarning bizlarga bergan yo'l-yo'riqlaridir. Ta'bir joiz bo'lsa, kishining o'zini o'zi tarbiyalashidagi bir rejadir. Endi rejani qanday tarzda amalga oshiradi – uning **aqliga bog'liq**. (12-b.)

Shu bois kishi atrofini **aql ko'zi bilan kuzatib**, yomon davralarni tark etishga jazm etmog'i shart. Botqoqda turib yuvinib, poklanishga urinishdan naf yo'q. (12-bet)

Deylik bir xonada olti ayol ishlaydi. Bittasi kitobxon, boshqalari kitob desa, **boshi og'riydigan toifadan**. (109-bet)

Yana bir necha marta may tutganlaridan so'ng ul zotning **ishqlari aqlariga jabr eta boshladi**. (30-bet)

<sup>3</sup> Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Талқин, 2005. – 121-б.

**Shirin jon bilan barobar tutish** iborasini ham Tohir Malik asaridagina uchratamiz: Do'stning haqiqiy dilini bilmog'chi bo'lsang, sinash uchun unga tilingda g'azab qilib yoki qovog'ingni solib ko'r. Do'stning senga qanchalik muhabbati borligini bilmog'chi bo'lsang, uning eng yaxshi ko'rgan narsasini so'ra. Shu ikkalasidan so'ng ham u qovog'ini solmasa, bunday do'stni boshga ko'tarish, **shirin jon bilan barobar tutish** kerak. (121-bet)

Tahlillarimiz Tohir Malikning iboralardan o'ta unumli foydalanganligini ko'rsatadi. Umuman iboralarning badiiy asardagi ifodasi o'ta keng va turli-tumandir. Buni Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida ham yorqin ko'rish mumkin. Tohir Malikning mazkur asarida kishilarning ruhiy holatlarini ko'rsatish uchun qo'llangan iboralar ko'pchilikni tashkil etadi. Asarning biror o'rni yo'qqi, ibora qo'llanmagan bo'lsa. Ular obrazlilikni oshirishda muhim o'rin egallagan.

Tohir Malik ijodi tubi javohir-u marvaridlar bilan to'la, mavjlanib turuvchi ummonni eslatadi. Unga sho'ng'igan sayin kishi takrorlanmas go'zallik va boylikni his etib boraveradi. Muallif asarlarini takrorlanmas badiiylik, jozibadorlik, falsafiylik bilan boyitgan boshqa ijodkorlarda uchramaydigan ifodalar milliy tilimiz, madaniyatimiz xazinasini boyitishga hissa qo'shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alijonovna, T. M. (2024). Representation of Phraseological Units in the Text "Human Property" on the Basis of Exact and Occasional Changes. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(4), 95-99.
2. Тилавова, М. А. (2024). ФЕНОМЕН СИНОНИМИИ И ФЕНОМЕН АНТОНИМИИ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ТАХИРА МАЛИКА «ДОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА». *TADQIQOTLAR. UZ*, 37(4), 59-63.
3. Jo'rayeva, L. (2024). ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI KIYIM NOMLARINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(3), 124-127.
4. Alijonovna, T. M. (2024). PHRASEOLOGISMS RELATED TO THE WORD USED BY TAHIR MALIK IN "HUMAN PROPERTY". *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(3), 83-87.
5. Тилавова, М. (2024). ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, РОДСТВЕННЫЕ СЛОВУ, УПОТРЕБЛЕННОМУ ТАХИРОМ МАЛИКОМ В «ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ СОБСТВЕННОСТИ». *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3 (40)).
6. Tilavova, M. (2023). FRAZEOLOGIK POLISEMIYA HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Philological issues are in the eyes of young researchers*, 1(1).

7. Tilavova M. TOHIR MALIKNING” ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO‘LLANILGAN FRAZELOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL JIHATI //Science and innovation in the education system. –2023. –Т. 2. –№. 5. –С. 197-203. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10472607>
8. Sh.Rahmatullaev. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, Toshkent, 1966, 9-58-b. 2. Sh.Rahmatullaev. Nutqimiz ko‘rki, Toshkent, 1970, 5-43-b. 3. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent, 1992, 55-126-b.
9. Yo‘ldasheva .D Nutqiy muloqotda sukut hodisasi “Ko‘p tillilik va madaniyatlararo muloqot:tajriba va muammolar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– Toshkent. 23-oktabr, 2023. –121-126-b.
10. Laylo, J. R. (2024). NAVOIY ASARLARIDAGI OZIYQ-OVQAT VA O‘SIMLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI. News of UzMU journal, 1(1.3), 299-302.
11. Zhiyankulovna, J. L. (2024). A Linguopoetic and Linguocultural Study of Craft Names in Alisher Navoi's Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 147-152.
12. Latifova , M. . (2024). O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA SO‘ZLAR TADQIQI (RAVISH SO‘Z TURKUMIGA OID QO‘SHMA SO‘ZLAR MISOLIDA). Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 3(1), 53–57. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/11411>